



Received: February 13, 2026  
Accepted: March 23, 2026  
Available online: March 25, 2026

## Nilufarxon Maxmudova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent  
Andijon davlat chet tillar instituti  
Andijon, O'zbekiston

## Nilufarkhon Makhmudova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philological Sciences  
Andijan State Institute of Foreign Languages  
Andijan, Uzbekistan  
E-mail: nilufarmahmudova042@gmail.com  
ORCID iD: 0009-0008-9276-6308

### O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GRADATSIYA HODISASINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI

#### ANNOTATSIYA

Jahon tilshunosligida semantik kategoriyalarni tizimli va qiyosiy asosda o'rganish masalasi so'nggi o'n yilliklarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Til birliklarida ma'no intensivligining bosqichma-bosqich ortishi yoki kamayishi orqali namoyon bo'ladigan gradatsiya hodisasi ana shunday murakkab lingvistik jarayonlardan biridir. Ushbu hodisa nafaqat leksik darajada, balki grammatik, stilistik va diskursiv sathlarda ham faol namoyon bo'lib, tilning dinamik tabiatini aks ettiradi. Ma'no kuchayishi, sifat darajalanishi va baholash intensivligining o'zgarishi, inson tafakkuridagi miqdoriy va sifat jihatidagi farqlarning lingvistik in'ikosi sifatida qaraladi. Zamonaviy tilshunoslikda yuz berayotgan nazariy jarayonlarning jadallashuvi hamda lingvistik tadqiqotlarning tipologik yo'nalishda kengayishi o'zbek va ingliz tillaridagi gradatsiya hodisasini chuqur ilmiy asosda o'rganishni taqozo qilmoqda.

Bu, o'z navbatida, ma'no intensivligining bosqichma-bosqich ortishini ifodalovchi vositalarni aniqlash, ularning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda ikki til tizimida ifodalanish mexanizmlarini ochib berish zaruratini keltirib chiqaradi. Shuning uchun o'zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasining qiyosiy-tipologik tadqiqi bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasining kelib chiqishi, shakllanishi hamda o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-tipologik asosda o'rganishdan iborat. Maqolada mazkur vazifalarni amalga oshirishda

### A COMPARATIVE-TYOLOGICAL STUDY OF THE PHENOMENON OF GRADATION IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

#### ABSTRACT

In contemporary linguistics, the comparative study of semantic categories has become increasingly significant. One of the complex linguistic phenomena reflecting this tendency is gradation, manifested through the gradual increase or decrease of meaning intensity within language units. This phenomenon functions across lexical, grammatical, stylistic, and discursive layers, reflecting the dynamic nature of language. The expansion of typological research in modern linguistics necessitates a comprehensive investigation of gradation in Uzbek and English languages.

In this respect, it becomes essential to identify the linguistic means expressing the gradual intensification of meaning, to analyze their structural-semantic characteristics comparatively, and to reveal the mechanisms of their realization in the two language systems. Therefore, the comparative-typological study of gradation in Uzbek and English represents a relevant and significant scholarly issue in contemporary linguistics.

The aim of the research is to investigate the origin, development, and distinctive features of the phenomenon of gradation in Uzbek and English on a comparative-typological basis. In accomplishing these objectives, the article employs comparative-typological analysis, componential analysis, contextual observation, and statistical analysis as the principal research methods.

qiyosiy-tipologik tahlil, komponent tahlil, kontekstual kuzatuv va statistik tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chog'ishtirilayotgan har ikki til tizimida gradatsiya hodisasi ma'no intensivligining bosqichma-bosqich ortishi tamoyiliga asoslanadi. Biroq uning ifodalanish mexanizmlari strukturaviy jihatdan farqlanadi: o'zbek tilida analitik vositalar va takroriy birliklar ustunlik qilsa, ingliz tilida morfologik daraja shakllari faolroq qo'llanadi. Mazkur farqlar ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan izohlanadi.

Xullas, o'zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasini chog'ishtirma yo'sinda o'rganish nafaqat leksik-semantik va grammatik tizimdagi o'ziga xosliklarni, balki mazkur tillardagi tavsifiy-nazariy hamda pragmatik jarayonlardagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** gradatsiya, o'zbek tili, ma'no intensivligi, qiyosiy-tipologik tahlil, ingliz tili, daraja kategoriyasi, leksik gradatsiya, grammatik gradatsiya, semantika, stilistika.

## KIRISH

Gradatsiya hodisasiga ilmiy qiziqish Yevropa tilshunosligida XX asr boshlaridan boshlab kuchaydi, chunki bu davrda semantika va funksional grammatika yo'nalishlari shakllana boshladi. Xususan, daraja kategoriyasining morfologik va semantik xususiyatlari ingliz tilshunosligida chuqur tadqiq etilgan [Quirk et al., 1985]. Shuningdek, semantik intensivlik va baholash mezonlari masalasi umumiy til nazariyasi doirasida ko'rib chiqilgan [Lyons, 1977]. O'zbek tilshunosligida esa daraja kategoriyasi va sifat gradatsiyasi masalalari grammatik tadqiqotlar doirasida yoritilgan bo'lib, ularning struktur-semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan [Rahmatullayev, 2006].

Shuni ta'kidlash joizki, gradatsiya hodisasi oddiy daraja kategoriyasi bilan cheklanmaydi. U sinonimik qatorlar tizimida semantik kuchayish, stilistik vositalar orqali ekspressivlikning ortishi hamda diskursda argumentativ intensivlikning kuchayishi shaklida ham namoyon bo'ladi. Masalan, minimal belgi ifodasidan maksimal baholash darajasigacha bo'lgan harakat til tizimida iyerarxik tuzilmani yuzaga keltiradi. Shu jihatdan gradatsiya tilning ichki tizimiy rivojlanishini aks ettiruvchi semantik mexanizm sifatida qaraladi.

O'zbek va ingliz tillari turli tipologik tizimlarga mansub bo'lsa-da, har ikkala tilda ham gradatsiya hodisasi universal semantik tamoyil asosida shakllansa-da, uning ifodalanish vositalari, morfologik mexanizmlari hamda sintaktik modellari farqlanadi. Ingliz tilida sintetik va analitik shakllar parallel ravishda qo'llanilsa [Biber et al., 1999], o'zbek tilida gradatsiya ko'proq affiksatsiya va leksik kuchaytiruvchilar orqali ifodalanadi [Nurmonov, 2012]. Ushbu farqlar ikki tilning tipologik xususiyatlari

The findings demonstrate that, in both language systems under comparison, the phenomenon of gradation is grounded in the principle of the gradual intensification of meaning. However, the mechanisms of its expression differ structurally: while Uzbek predominantly relies on analytical means and repetitive units, English more actively employs morphological degrees of comparison. These distinctions are explained by the typological characteristics of the two languages.

In conclusion, the comparative investigation of gradation in Uzbek and English makes it possible to identify not only the specific lexical-semantic and grammatical features of the two language systems, but also the differences manifested in their descriptive-theoretical and pragmatic processes.

**Key words:** gradation, Uzbek language, meaning intensity, comparative-typological analysis, English language, category of degree, lexical gradation, grammatical gradation, semantics, stylistics.

bilan izohlanadi.

Shunday qilib, o‘zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasining qiyosiy-tipologik tadqiqi nafaqat daraja kategoriyasining struktur-semantik tabiatini aniqlash, balki ma’no intensivligining universal va milliy xususiyatlarini belgilash imkonini beradi. Mazkur masala zamonaviy semantika, tipologiya va funksional tilshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etiladi.

Binobarin, gradatsiya hodisasini o‘rganishning zamonaviy bosqichida ushbu kategoriya til tizimida semantik dominantlik kasb etuvchi muhim mexanizmlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, ma’no intensivligining iyerarxik tashkil topishi, sifat darajalanishi va baholash mezonlarining bosqichma-bosqich shakllanishi lingvistik tadqiqotlarda alohida e’tibor markaziga aylangan. Zamonaviy tilshunoslikda rasman qo‘llaniladigan “*daraja kategoriyasi*”, “*intensivlik*”, “*baholash shkalasi*”, “*semantik iyerarxiya*” kabi tushunchalar bilan bir qatorda “*gradatsion maydon*” konsepti ham keng muhokama qilinmoqda. Aniqrog‘i, “*gradatsion maydon*” muayyan semantik belgi asosida minimaldan maksimalga tomon yo‘naltirilgan ma’no birliklari yig‘indisini anglatadi va u yagona grammatik kategoriya bilan cheklanmaydi, balki leksik, morfologik hamda diskursiv sathlarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, gradatsion maydon tarkibining ko‘p qatlamlilikini uni turli tipologik tizimlarga mansub tillarda qiyosiy o‘rganish imkonini beradi [Cruse, 2000].

Masalan, ingliz tilida daraja kategoriyasining morfologik va analitik shakllari tizimli tarzda tavsiflangan bo‘lib, ular semantik intensivlikni bosqichma-bosqich ifodalash imkonini beradi [Quirk et al., 1985]. O‘zbek tilshunosligida esa sifat darajalanishi va ma’no kuchaytiruvchilarning struktur-semantik xususiyatlari grammatik tizim doirasida o‘rganilgan [Rahmatullayev, 2006]. Tadqiqotchilar gradatsiya mexanizmini nafaqat morfologik daraja shakllari bilan, balki sinonimik qatorlar, leksik kuchaytiruvchilar hamda diskursiv intensivlik bilan bog‘liq holda tahlil qiladilar. Xususan, ayrim izlanishlarda gradatsiya jarayoni semantik shkalalarning shakllanishi va baholash mezonlarining tizimlashuvi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi [Kennedy & McNally, 2007].

Shunday qilib, o‘zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasini qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish ma’no intensivligining universal va milliy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, semantik iyerarxiyaning til tizimidagi funksional o‘rnini belgilash imkonini beradi. Mazkur yondashuv gradatsiyani faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki ko‘p sathli semantik tizim sifatida talqin qilishga zamin yaratadi.

Zero, gradatsiya hodisasini tilshunoslik obyekti sifatida o‘rganishning dolzarbligi ma’no intensivligining til tizimidagi universal xarakteri bilan belgilanadi. Har qanday til o‘z rivojlanish jarayonida sifat, miqdor va baholash darajalarini ifodalashning turli mexanizmlarini shakllantiradi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan keyingi davrda ilmiy, publitsistik va badiiy diskurslarda ekspressiv vositalarning kengayishi kuzatildi, bu esa gradatsion birliklarning faol qo‘llanishiga olib keldi. Xuddi shuningdek, ingliz tilida global kommunikatsiya jarayonlarining jadallashuvi intensivlikni ifodalovchi analitik konstruksiyalar va morfologik daraja shakllarining keng qo‘llanishini ta’minladi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida gradatsiya hodisasining qiyosiy-tipologik jihatdan chuqur tadqiq qilinishi nisbatan kam kuzatiladi. Holbuki, ikki til tizimida ma’no intensivligining ifodalanish mexanizmlarini qiyoslash semantik iyerarxiyaning universal va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy kommunikativ jarayonlarda baholash, kuchaytirish va ta’sirchanlik vositalarining ortib borishi gradatsiya hodisasining lingvistik tadqiqini yanada dolzarb etmoqda. Natijada gradatsion birliklarning qo‘llanish darajasi kengayib, ularning funksional salohiyati yanada chuqurlashmoqda.

Keyinchalik semantik shkalalar va gradatsion antonimiya masalalari chuqurroq o‘rganilib, ma’no intensivligining iyerarxik tashkil topishi nazariy jihatdan asoslandi [Cruse, 2000]. Jumladan, K.Kennedi tadqiqotlarida intensivlik kategoriyasi semantik baholash mexanizmi bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, gradatsiya kognitiv model sifatida talqin qilinadi [Kennedy & McNally, 2007].

O‘zbek tilshunosligida esa daraja kategoriyasi avvalo grammatik tizim doirasida o‘rganilib, sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari struktur jihatdan tavsiflangan [Rahmatullayev, 2006]. Keyingi bosqichda leksik kuchaytiruvchilar, takroriy birliklar va ekspressiv vositalarning funksional xususiyatlari tadqiq etildi [Nurmonov, 2012]. Mazkur izlanishlar gradatsiya hodisasining nafaqat morfologik, balki leksik-semantik va stilistik sathlarda ham faol namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, turli tipologik tizimlarga mansub tillarda gradatsiya mexanizmlarini qiyosiy asosda o‘rganish masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Tadqiqotchilar daraja kategoriyasini ifodalashda sintetik shakllar, analitik konstruksiyalar hamda leksik intensivatorlarning o‘rni va nisbatini ajratib ko‘rsatadilar. Xususan, ingliz tilida “-er/-est” affikslari va “more/most” modellari parallel ravishda qo‘llanilsa [Biber et al., 1999], o‘zbek tilida -roq qo‘shimchasi, “eng” ko‘rsatkichi hamda kuchaytiruvchi ravishlar faol ishtirok etadi.

Vaholanki, bunday gradatsion birliklar real nutq jarayonida kommunikativ ehtiyojlarga moslashish bosqichlarini bosib o‘tadi. Ular dastlab grammatik model sifatida shakllanadi, keyinchalik leksik va stilistik vosita sifatida kengayadi hamda diskursiv intensivlikni ta’minlovchi funksional mexanizmga aylanadi. Shu jihatdan gradatsiya hodisasini qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish semantik iyerarxiyaning shakllanish jarayonlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.


Gradatsiya hodisasining muayyan lingvistik jihatlari bo‘yicha bir qator olimlar muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, gradatsiyaning semantik va funksional xususiyatlari M.Bervish [Bierwisch, 1989], D.Bolinjer [Bolinger, 1972], J.Lakof [Lakoff, 1973], J.N. Lich [Leech, 1981], M.J. Kresvel [Cresswell, 1977], K.Paradis [Paradis, 1997] hamda E.Sepir [Sapir, 1944] tadqiqotlarida keng yoritilgan. Shuningdek, ingliz tilidagi intensivikasiya va darajalanish hodisalarining grammatik hamda pragmatik jihatlari D.Kristal [Crystal, 2018], M.A.K. Xollidey va R.Hasan [Halliday & Hasan, 2014] tomonidan chuqur tahlil qilingan.

**Gradatsiya** hodisasi va uning markaziy yadrosini tashkil etuvchi daraja kategoriyasi til tizimida ekstralingvistik omillar bilan bevosita aloqador holda shakllanadi. Ushbu omillar ta’sir kuchining tabiati va ko‘lami jihatidan ijtimoiy-

madaniy, kommunikativ, pragmatik hamda tarixiy omillarga ajratiladi. Tilning funksional rivoji jarayonida baholash mezonlari, intensivlik ifodasi va ekspressiv vositalarning faollashuvi jamiyatning kommunikativ ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga keladi. Shu bois gradatsiya hodisasi faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki diskursiv va kognitiv mexanizm sifatida ham talqin qilinadi.

O‘zbek tilidagi gradatsion maydon umumiste’ moldagi leksika, stilistik birliklar hamda grammatik daraja shakllari bilan integrativ jarayonda ishtirok etadi. Ingliz tilida esa gradatsiya morfologik affiksalar, analitik konstruksiyalar va intensivatorlar orqali ko‘p qatlamli tizimni hosil qiladi. Har ikki tilda ham minimal belgi ifodasidan maksimal baholash darajasigacha bo‘lgan iyerarxik tuzilma shakllanadi. Shu ma’noda, gradatsion maydonning bazaviy asosini sifat darajalari, leksik kuchaytiruvchilar hamda sinonimik qatorlar tashkil qiladi.

Gradatsiya hodisasining strukturaviy modeli nazariy manbalar va qiyosiy tahlil asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida gradatsion birliklarning yadro va periferiya zonalarini ajratilib, ularning o‘zaro semantik munosabatlari aniqlashtirildi (quyidagi rasmga qarang). Mazkur model gradatsiya hodisasining ko‘p sathli va tizimli xarakterini namoyon etadi hamda uning tipologik o‘ziga xosliklarini aniqlashga xizmat qiladi.



O‘zbek va ingliz tillarida qo‘llaniladigan gradatsion birliklar til tizimida leksik, grammatik va stilistik qatlamlar bilan o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ular semantik jihatdan tarmoqlararo xarakter kasb etib, turli diskursiv sohalarda intensiv munosabatga kirishadi hamda o‘zaro kesishuvchi, chastotali birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, gradatsion tizimning yadrosini sifat darajalarini ifodalovchi grammatik shakllar tashkil etadi. Ingliz tilida “-er/-est” affikslari va “**more/most**” konstruksiyalari, o‘zbek tilida esa “-roq” qo‘shimchasi hamda “**eng**” ko‘rsatkichi mazkur yadroviy qatlamning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Gradatsiya hodisasining semantik maydoni tarkibida yadro va periferik zonalar ajratiladi. Yadroviy hududni morfologik daraja shakllari egallasa, periferiya qatlamida leksik kuchaytiruvchilar, takroriy birliklar, sinonimik qatorlar hamda stilistik intensivatorlar joylashadi. Masalan, o‘zbek tilida “*juda*”, “*nihoyatda*”, “*g‘oyat*” kabi birliklar, ingliz tilida esa “*very*”, “*extremely*”, “*absolutely*” singari intensivatorlar periferik zonaga mansubdir.

Shuningdek, gradatsion maydonning chegaradosh hududini hosil qiluvchi, biroq

to‘laqonli daraja kategoriyasiga kirmaydigan maxsus birliklar ham mavjud. Ular kontekstual baholash vositalari, metaforik kuchaytirish shakllari hamda pragmatik intensivlik elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar grammatik daraja mezonlariga to‘liq javob bermasa-da, nutq jarayonida intensivlikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Shu tariqa, o‘zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasi ko‘p qatlamli semantik maydon sifatida shakllanib, uning yadrosi va periferiyasi o‘zaro tizimli munosabatda amal qiladi. Mazkur tuzilma gradatsiyaning tipologik xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gradatsiya hodisasining shakllanishi va rivojlanish jarayonini o‘rganishda, uning leksik-semantik, struktur-semantik hamda funksional xususiyatlarini tavsiflash, daraja kategoriyasining ifodalanish mexanizmlarini aniqlash va ularni tizimlashtirish masalalari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa, gradatsion birliklarni qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilish turli tipologik tizimlarga mansub tillarda ma‘no intensivligining shakllanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, gradatsiya hodisasiga nisbatan turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, u umumleksik tizim va grammatik kategoriya doirasida o‘zining mustaqil ilmiy maqomiga ega bo‘lgan murakkab semantik mexanizm sifatida qaraladi. Tilning zamonaviy kommunikativ makondagi faoliyati, baholash va ta‘sirchanlik strategiyalarining kuchayishi gradatsiyaning funksional ahamiyatini yanada oshiradi. Daraja kategoriyasini, intensivlik vositalarini va ekspressiv birliklarni hisobga olmasdan turib, nutqning semantik va pragmatik tuzilishini to‘laqonli tasavvur etib bo‘lmaydi.

Chunonchi, mazkur yo‘nalish gradatsion birliklarning kelib chiqishi, ularning qo‘llanilish mezonlari, semantik iyerarxiyada tutgan o‘rni, ko‘pdarajalilik xususiyati, kontekstual kengayishi hamda diskursiv funksiyalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, daraja shakllarining sintetik va analitik modellari, leksik kuchaytiruvchilarning intensivlik darajasi hamda gradatsion antonimiya kabi hodisalar ham mazkur tadqiqot doirasiga kiradi.

Umuman olganda, o‘zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasini qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish orqali har ikki til tizimining strukturaviy va semantik o‘ziga xosliklari, darajalanish mexanizmlarining universalligi va milliy xususiyatlari aniqlanadi hamda ularning nazariy asoslari ilmiy tahlil qilinadi.

### **Ingliz tilida gradatsiya hodisasining tarixiy shakllanishi**

Tarixiy lingvistik manbalarga ko‘ra, ingliz tilida daraja kategoriyasi va gradatsiya hodisasining shakllanishi qadimgi german til tizimiga borib taqaladi. Qadimgi ingliz davrida sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari sintetik usulda hosil qilingan bo‘lib, bu shakllar keyinchalik fonetik evolyutsiya jarayonida barqarorlashgan [Quirk et al., 1985]. Masalan, *tall – taller – tallest, old – older – oldest, small – smaller – smallest* kabi birliklar morfologik gradatsiyaning an’anaviy modelini ifodalaydi.

O‘rta ingliz davridan boshlab analitik model ham rivojlana boshladi. Ayniqsa, ko‘p bo‘g‘inli sifatlarda **more** va **most** yordamchi birliklari faol qo‘llanila boshlagan [Biber et al., 1999]. Masalan, *beautiful – more beautiful – the most beautiful, important*

– *more important* – *most important*, *effective* – *more effective* – *most effective* kabi konstruksiyalar semantik intensivlikni bosqichma-bosqich ifodalash imkonini beradi.

Gradatsiya tushunchasining o‘zi lotincha *gradus* so‘ziga borib taqaladi va “*bosqich*”, “*daraja*” ma‘nolarini anglatadi. Bu etimologik asos gradatsiyaning semantik mohiyatini, ya‘ni belgi intensivligining minimal shakldan maksimal darajaga tomon o‘shini anglatadi [Lyons, 1977]. Shuningdek, zamonaviy ingliz tilida leksik intensivatorlar ham gradatsion maydonning periferik qatlamini tashkil etadi. Masalan, *very cold*, *extremely difficult*, *absolutely certain* kabi birliklar grammatik daraja shakllarini kuchaytiruvchi semantik vosita sifatida namoyon bo‘ladi [Cruse, 2000].

Shu tariqa, ingliz tilida gradatsiya hodisasi tarixiy jihatdan sintetik modeldan boshlab analitik va leksik intensivlik vositalarigacha evolyutsion rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan va bugungi kunda ko‘p qatlamli semantik tizim sifatida shakllangan.

Ingliz tilining tarixiy taraqqiyoti jarayonida leksik qatlamlarning aralashuvi daraja kategoriyasi va gradatsion birliklarning shakllanishiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. IX–XI asrlarda german asosli sifat shakllari ustun bo‘lgan bo‘lsa, normandlar hukmronligi davrida fransuz va lotin elementlarining kirib kelishi tilning leksik tarkibini sezilarli darajada boyitdi. Natijada bir xil semantik belgi turli etimologik qatlamlarga mansub birliklar orqali ifodalanadigan bo‘ldi. Masalan, german kelib chiqishli *big*, fransuz asosli *large* hamda lotin ildizli *magnificent* birliklari kuchayish shkalasida turli darajadagi intensivlikni ifodalash imkonini beradi.

O‘rta asrlar davrida ingliz tilida sintetik gradatsiya shakllari barqaror saqlangan. Masalan, *high* – *higher* – *highest*, *strong* – *stronger* – *strongest*, *young* – *younger* – *youngest* kabi birliklar daraja kategoriyasining grammatik yadrosini tashkil etgan. Shu bilan birga, fransuz tilidan o‘zlashgan ko‘p bo‘g‘inli sifatlarda analitik model shakllana boshlagan va *noble* – *more noble* – *most noble*, *honest* – *more honest* – *most honest* kabi shakllar faol qo‘llanilgan [Quirk et al., 1985].

Lotin tilining ma‘muriy va huquqiy sohalarda ustuvor mavqega ega bo‘lishi sababli rasmiy diskursda analitik konstruksiyalar kengroq qo‘llanilgan. Bu jarayon gradatsiya hodisasining ikki parallel yo‘nalishda rivojlanishiga olib keldi: bir tomondan sintetik model saqlanib qoldi, ikkinchi tomondan analitik vositalar mustahkamlandi. Keyingi asrlarda ushbu ikki model zamonaviy ingliz tilida birgalikda amal qiladigan tizimni shakllantirdi [Biber et al., 1999].

Shunday qilib, ingliz tilining o‘rta asrlar davridagi ko‘p tilli muhit va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar gradatsion birliklarning shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada daraja kategoriyasi tarixiy jihatdan sintetik asosdan boshlab, analitik va leksik intensivatorlar bilan boyigan ko‘p qatlamli semantik tizimga aylandi.

Gradatsiya hodisasiga oid ayrim ma‘lumotlar ingliz tilining tarixiy lug‘atlarida ham uchraydi. Xususan, G.A. Nikolayevning inglizcha-ruscha tarixiy lug‘atida daraja va intensivlik ifodasi bilan bog‘liq birliklarning o‘rta asrlarda faol qo‘llanilgani qayd etiladi [Nikolayev, 1995]. Muallif keltirgan sifat birliklari tarixiy davrlarda keng iste‘molda bo‘lib, ularning ayrimlari zamonaviy ingliz tilida ham saqlanib qolgan. Masalan, *high* – *higher* – *highest*, *great* – *greater* – *greatest*, *long* – *longer* – *longest*

shakllari sintetik gradatsiyaning tarixiy barqaror modelini ifodalaydi.

Oʻrta asrlarda analitik model ham shakllana boshlagan. Xususan, *more noble, most worthy, more certain, most powerful* kabi konstruksiyalar semantik intensivlikni bosqichma-bosqich ifodalash imkonini bergan [Quirk et al., 1985].

Ingliz tilidagi gradatsion tizim oʻz qatlam va oʻzlashma qatlamning oʻzaro taʼsiri asosida shakllangan. Lotincha kelib chiqishga ega boʻlgan *major, minor, superior, inferior* birliklari dastlab rasmiy-huquqiy diskursda qoʻllanilgan boʻlsa-da, keyinchalik umumiy semantik shkalada yuqori va quyi darajani ifodalovchi elementlarga aylangan [Bieber et al., 1999].

Etimologik jihatdan daraja bilan bogʻliq terminlar ham lotin tiliga borib taqaladi. Masalan, *comparative* atamasi lotincha *comparare* feʼlidan, *superlative* esa *superlativus* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, ularning semantik asosida qiyoslash va eng yuqori daraja tushunchasi yotadi [Lyons, 1977].

Fransuz tilidagi oʻzlashmalar ham normandlar davrida ingliz tiliga kirib kelib, gradatsion maydonning leksik qatlamini boyitgan. Masalan, *large – larger – largest, noble – more noble – most noble, important – more important – most important* kabi birliklar sintetik va analitik modellarning parallel rivojlanishini koʻrsatadi.

Shu tariqa, ingliz tilida gradatsiya hodisasi german asosli sintetik modeldan boshlab, lotin va fransuz oʻzlashmalari bilan boyigan analitik va leksik intensivatorlar tizimigacha bosqichma-bosqich taraqqiy etgan.

Fransuz tilidan oʻzlashmalar ingliz tiliga normand dialekti orqali kirib kelishi natijasida tilning leksik tarkibi sezilarli darajada boyigan va bu jarayon gradatsion birliklar tizimiga ham taʼsir koʻrsatgan. XV asrdan boshlab fransuz va lotin kelib chiqishli koʻp boʻgʻinli sifatlar ingliz tilida keng qoʻllanila boshlagan [Biber et al., 1999]. Mazkur oʻzlashmalar, ayniqsa, analitik darajalanish modeli rivojlanishiga xizmat qilgan. Masalan, *important – more important – most important, central – more central – most central, formal – more formal – most formal* kabi birliklar koʻp boʻgʻinli sifatlarda analitik gradatsiyaning ustuvorligini koʻrsatadi.

Lotin tilidan oʻzlashgan koʻplab sifatlar ham ingliz tilining gradatsion maydonini boyitgan. Masalan, *major – more major – most major, minor – more minor – most minor, superior – more superior – most superior* kabi birliklar dastlab rasmiy-huquqiy diskursda faol boʻlgan boʻlsa-da, keyinchalik umumiy baholash shkalasiga integratsiyalashgan. Shuningdek, *economic – more economic – most economic, financial – more financial – most financial, efficient – more efficient – most efficient* kabi sifatlar semantik intensivlikni analitik model asosida ifodalaydi.

Ingliz tilida soʻz yasashining gradatsion birliklar materiali asosida tahlili, avvalo, affiksatsiya usuli orqali namoyon boʻladi. Daraja kategoriyasining grammatik yadro qatlami **-er** va **-est** affikslari orqali shakllanadi. Masalan, *large – larger – largest, strong – stronger – strongest, deep – deeper – deepest* shakllari sintetik modelni ifodalaydi [Quirk et al., 1985].

Affiksial morfemalar oʻzakka nisbatan joylashuv oʻrniga koʻra prefiks va suffikslarga boʻlinadi. Ingliz tilidagi gradatsiya (darajalanish) hodisasida, ayniqsa, **shakl yasovchi (infleksion) morfemalar**, yaʼni **-er** hamda **-est** qoʻshimchalari

markaziy o‘rin tutadi. Shuningdek, mazkur gradatsion maydonning o‘rta va periferik qatlamlarini shakllantirishda analitik vositalar (**more, most**) hamda leksik intensivliklar (**very, extremely, absolutely, highly**) faol ishtirok etadi [Biber et al., 1999].

Professional tarjimonlar yoki lingvistik tahlil bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ushbu affiks va analitik modellarni yaxshi bilgan holda yangi hosil bo‘lgan gradatsion birliklarning semantik darajasini lug‘at yordamisiz ham aniqlay oladi. Zero, gradatsiya til tizimining muntazam va prognoz qilinadigan kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Shu tariqa, ingliz tilida fransuz va lotin o‘zlashmalari nafaqat leksik qatlamni boyitgan, balki analitik gradatsiya modelining mustahkamlanishiga ham xizmat qilgan. Natijada sintetik va analitik shakllar uyg‘unlashgan ko‘p qatlamli darajalanish tizimi yuzaga kelgan.

Ingliz tilida gradatsiya hodisasi ko‘p qatlamli semantik tizim sifatida namoyon bo‘ladi va u formal hamda diskursiv vositalar orqali realizatsiya qilinadi. Zamonaviy grammatika tadqiqotlarida daraja kategoriyasi belgi intensivligining bosqichma-bosqich ortishini ifodalovchi grammatik mexanizm sifatida talqin qilinadi [Abdullaeva, 2000]. Gradatsion birliklar realizatsiyasi grammatik, leksik va kontekstual qatlamlarda kuzatiladi.

Grammatik darajalanishda intensivlik morfologik yoki analitik vosita orqali ifodalanadi. Masalan, *strong – stronger – strongest, cold – colder – coldest, large – larger – largest* birliklari sintetik modelni ifodalaydi. Ko‘p bo‘g‘inli sifatlarda esa analitik model ustunlik qiladi, masalan *more significant – most significant, more complex – most complex, more effective – most effective*. Bu shakllar intensivlikning izchil o‘shishini grammatik jihatdan belgilaydi [Abdullaeva, 2000].

Leksik kuchaytirish vositalari grammatik darajadan mustaqil holda semantik intensivlikni oshiradi. Masalan, *very important, extremely difficult, highly productive, absolutely certain* konstruksiyalarida intensivlik affiks emas, balki leksik birlik orqali yuzaga keladi. Bu birliklar gradatsion maydonning o‘rta qatlami sifatida tavsiflanadi [Axmedov, 2016].

Kontekstual gradatsiyada esa intensivlik diskursiv kuchayish orqali hosil qilinadi. Masalan, *It was cold. It was very cold. It was unbearably cold* ketma ketligi ma’no o‘shishining dinamik modelini ko‘rsatadi. Sinonimik qatorlar ham gradatsion zanjir hosil qiladi, masalan, *good – excellent – outstanding, bad – terrible – disastrous*. Bunday hodisa leksik semantika doirasida izohlanadi [Azizov, 1983].

Shunday qilib, ingliz tilida gradatsiya hodisasi affiks model bilan cheklanmaydi, balki analitik konstruksiyalar, leksik intensivliklar va diskursiv vositalar orqali ko‘p pog‘onali tizimni shakllantiradi.

Gradatsiya hodisasini tahlil qilishda ko‘p komponentli birliklar ham alohida e’tiborga loyiqdir. Bunday birliklar ikki yoki undan ortiq semantik komponentning birikishi orqali intensivlikni kuchaytiruvchi konstruksiyalarni hosil qiladi. Ingliz tilida ko‘p komponentli sifat birikmalari gradatsion ma’no hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *highly competitive market, deeply rooted problem, strongly inflationary pressure, critically important factor* kabi konstruksiyalarda intensivlik

grammatik daraja emas, balki komponentlarning o‘zaro semantik uyg‘unligi orqali yuzaga keladi. Bunday model ko‘pincha rasmiy va ilmiy diskursda qo‘llanadi va semantik shkalani aniqlashtiradi [Abdullaeva, 2000].

Shuningdek, ko‘p komponentli nominal birliklarda ham gradatsion intensivikasiya kuzatiladi. Masalan, *extremely high budget deficit, severely reduced revenue base, rapidly growing financial sector* kabi birikmalarda intensivlikni bildiruvchi ravish va sifatlar asosiy terminning semantik salmog‘ini oshiradi. Bu holatda gradatsiya affiksali emas, sintaktik va leksik vositalar orqali amalga oshiriladi [Axmedov, 2016].

Ingliz tilida gradatsion birliklarning hosil bo‘lishi, bir tomondan, yangi tushunchalar va baholash mezonlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, diskursiv aniqlik ehtiyoji bilan belgilanadi. Intensivlikning aniqlashtirilishi, ayniqsa, iqtisodiy va rasmiy nutqda semantik noaniqlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Uchinchi tomondan esa, gradatsiya morfologiya, leksika va semantikaning o‘zaro integratsiyasini namoyon etadi, ya‘ni daraja kategoriyasi derivatsion tizim bilan bevosita aloqador holda rivojlanadi [Azizov, 1983].

### **O‘zbek tilida gradatsiya hodisasining tarixiy shakllanishi**

O‘zbek tilida ham gradatsiya hodisasi tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan. O‘zbek tilining qadimiy yodgorliklarida intensivlikni ifodalovchi vositalar leksik va sintaktik shaklda namoyon bo‘lgan. Masalan, qadimgi matnlarda kuchaytirish ma‘nosini bildiruvchi birliklar orqali semantik o‘shish kuzatiladi. Zamonaviy o‘zbek tilida esa grammatik va leksik model parallel amal qiladi. Masalan, *katta – kattaroq – eng katta, muhim – muhimroq – eng muhim*, shuningdek, *juda muhim, nihoyatda dolzarb, g‘oyat ahamiyatli* kabi konstruksiyalar intensivlik shkalasini hosil qiladi.

O‘zbek tilidagi gradatsion birliklarning o‘rganilishi bo‘yicha H.A. Dadaboyev, Q.M. Musayev, O.S. Axmedov kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar daraja kategoriyasining morfologik va semantik jihatlarini tavsiflash bilan birga, uning tipologik xususiyatlarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillarida gradatsiya hodisasi ko‘p komponentli konstruksiyalar, leksik intensivatorlar va grammatik daraja shakllari orqali ifodalanadi. Har ikki til tizimida intensivlikni modellashtirish mexanizmi mavjud bo‘lsa-da, ularning struktur realizatsiyasi tipologik jihatdan farqlanadi.

Mazkur faol qatlam globalashuv jarayonlari sharoitida mamlakatda kuzatilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘shishning lingvistik in‘ikosini ham aks ettiradi. Ayniqsa, baholash va intensivlikni ifodalovchi birliklarning faollashuvi til tizimining dinamik xarakterini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida gradatsiya hodisasi ham ana shunday faol rivojlanayotgan qatlamlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘zbek tilida daraja kategoriyasi grammatik va leksik vositalar orqali realizatsiya qilinadi. Grammatik modelda sifat negiziga **-roq** qo‘shimchasi hamda **eng** kuchaytiruvchisi qo‘llanadi. Masalan, *katta – kattaroq – eng katta, muhim – muhimroq – eng muhim, yuqori – yuqoriroq – eng yuqori* shakllari intensivlikning izchil o‘shishini formal jihatdan belgilaydi. Ushbu model gradatsion maydonning yadroviy qatlamini tashkil etadi.

Leksik vositalar orqali yuzaga keladigan gradatsiya esa semantik kuchayish xarakteriga ega. Masalan, *juda muhim, nihoyatda dolzarb, g'oyat ahamiyatli, o'ta keskin, benihoya murakkab* kabi konstruksiyalar grammatik daraja shaklidan foydalanmagan holda intensivlikni oshiradi. Bu birliklar gradatsion tizimning o'рта qatlamini hosil qiladi.

Sintaktik jihatdan murakkab birikmalar orqali ham darajalanish yuzaga keladi. Masalan, *eng yuqori ko'rsatkich, yuqori darajadagi o'sish, juda tez rivojlanish, maksimal samaradorlik, minimal xarajat* kabi birliklarda intensivlik komponentlararo semantik uyg'unlik asosida hosil bo'ladi. Bunday konstruksiyalar iqtisodiy va rasmiy diskursda aniqlik va baholash mezonini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'zbek tilida gradatsiya hodisasi grammatik daraja shakllari, leksik intensivatorlar va sintaktik konstruksiyalar orqali ko'p qatlamli tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar ta'sirida shakllanmoqda.

O'zbek tilida gradatsiya hodisasining derivatsion xususiyatlari uning qo'llanish doirasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Intensivlikni ifodalovchi birliklarning grammatik va leksik shakllari parallel ravishda faol qo'llanishi til tizimining dinamik rivojlanayotganini ko'rsatadi. Masalan, *eng yuqori daraja* bilan bir qatorda *maksimal daraja, eng past ko'rsatkich* bilan birga *minimal ko'rsatkich* birliklari bir diskurs doirasida ishlatiladi. Bu hodisa normativ barqarorlashuv jarayonining davom etayotganidan dalolat beradi [Abdullaeva, 2000].

